



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 5 - yanvar

VI-85-1-7-104-K/24

Toyloq tuman hokimligi

**Toyloq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning
reyting ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlari va uning natijalari
to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rribbosari J.Xujamurodovning
hisoboti haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonining 12.3-bandi ijrosi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-sonli qarori ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasining 2023-yil 5-sentabrdagi 11-04/1898-sonli xatiga asosan tuman hokimining birinchi o'rribbosari J.Xujamurodovning tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning reyting ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlari va uning natijalari to'g'risida hisoboti eshitilib hamda sessiya ishtirokchilarining bildirgan takliflariga ko'ra, "Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining sakson beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Toyloq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning reyting ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlari va uning natijalari to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rribbosari J.Xujamurodovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rnbosari (J.Xujamurodov)ga:

hududlar uchun 2023-yilda belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni belgilangan prognozga erishilishi yuzasidan, 2024-yilda barcha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha hududlarning mavjud imkoniyatlardan foydalanish;

sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan faoliyat yuritayotgan korxonalardagi mavjud muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish;

qo‘srimcha ishlab chiqarish hajmlariga erishish orqali aholi jon boshiga ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimi o‘rnbosari – tuman investitsiya va tashqi savdo bo‘limi (B.Sanaqulov):

eksport salohiyati past bo‘lgan hududlarda eksport hajmining jadal o‘sishi uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish va qo‘srimcha zaxiralarni aniqlash orqali 2024-yilda mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish;

2024-yilda barcha dasturlar doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan sanoat, xizmat va qishloq xo‘jaligi sohasidagi loyihalarni ishga tushirilishida to‘sinqinlik qiladigan muammolarni bartaraf etgan holda o‘z muddatlarida ishga tushirilishini ta’minalash va buning natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni to‘liq jalb qilish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov)ga:

undirilmasdan qolgan soliq to‘lovleri, jumladan mol-mulk va yer solig‘i undirilish darajasi past bo‘lgan hududlarda mavjud boqimanda miqdorini undirish bo‘yicha hamda joriy yil yakuni bilan belgilangan reja bajarilishi yuzasidan qat’iy choralar ko‘rish;

faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha ularning faoliyatini qayta tiklash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimining o‘rnbosarlari (J.Haqberdiyev, N.Kambaridinova), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (J.Tursunov) bilan birgalikda:

tumanda ishsiz, jumladan “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar va yoshlarni tumanda mavjud bo‘sh ish o‘rnları, yangi loyihalar hisobiga yaratiladigan ish o‘rnları, zaxiralangan ish o‘rnları, qayta kasbga o‘qitish

hisobiga, tadbirkorlikka yo‘naltirish orqali bandlik darajasini oshirish choralarini ko‘rsinlar.

6. Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (K.Bobaliyev) tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda joylarga chiqib, tadbirkorlik faoliyatini boshlashga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni hal etish, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashsin.

7. Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish hamda har bir yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirish maqsadida tumandagi sektorlar rahbarlari, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (J.Tursunov) bilan birgalikda:

belgilangan budjet tushumlari rejasini oyma-oy bajarilishini;

tadbirkorlikni rivojlantirish jumladan, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda fermer xo‘jaliklariga ko‘maklashish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, eksport hajmini oshirish, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash;

yangi ish o‘rlarini yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta’minlash, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash;

investitsiya jalb etishning samarali vositalaridan biri bo‘lgan davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini transport, energetika, yo‘l, kommunal, tibbiyot, ta’lim kabi sohalarga keng tatbiq etish choralarini ko‘rsinlar.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova) va “Qo‘shchinor” gazetasi bosh muharriri (M.Yuldasheva) sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev), hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmalariga yuklansin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi o'rribbosari



Z.Avazov